



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

06.04.2022 yil

55 um-son

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ta'lim muassasalarida fan olimpiadalari va tanlovlarni o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-oktabrdagi 858-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida o'qishni tashkil qilish choralari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq

#### BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari o'quvchilari o'rtasida "Huquqiy fanlar olimpiadasi" ni o'tkazish tartibi to'g'risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari o'quvchilari o'rtasida "Jinoyat, fuqarolik va ma'muriy sud ishlari bo'yicha namunaviy sud protsessi" tanlovlarini o'tkazish tartibi to'g'risida nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari boshliqlari va yuridik texnikumlar direktorlari yuridik texnikumlar o'quvchilari

o'rtasida fan olimpiadalari va tanlovlarni mazkur buyruq talablari asosida tashkil etilishini ta'minlasin.

3. Moliya-iqtisod boshqarmasi (T. Bekbutayev) fan olimpiadalari va tanlovlarning respublika bosqichini o'tkazish va g'oliblarni moddiy rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlarni budjetdan tashqari adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, yuridik texnikumlarning to'lov-kontrakt mablag'lari va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplash bo'yicha choralarni ko'rsin.

4. Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi (A. Buriyev) ushbu buyruqni vazirlikning tarkibiy bo'linmalariga yetkazsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari A.Muhammadiyev zimmasiga yuklansin.

**Adliya vaziri**



**R.DAVLETOV**

Toshkent shahar

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari  
o‘quvchilari o‘rtasida “Huquqiy fanlar olimpiadasi”ni  
o‘tkazish tartibi to‘g‘risida  
NIZOM**

**I bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlarida (keyingi o‘rinlarda – yuridik texnikumlar) huquqiy fanlar olimpiadasini (keyingi o‘rinlarda – olimpiada) tashkil etish, o‘tkazish, ishtirokchilarni saralash hamda olimpiada g‘oliblarini aniqlash tartibini belgilaydi.

2. Olimpiadaning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuridik texnikumlarning bilimli va iqtidorli o‘quvchi-yoshlarini aniqlash va ularning intellektual salohiyatini oshirish;

- olimpiada ishtirokchilariga yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan yosh olimlar va pedagog xodimlarni jalb qilgan holda “ustoz-shogird” an’analarini yanada mustahkamlash;

- iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularga keng imkoniyatlarni yaratish.

3. Yuridik texnikumlarning o‘quvchilari olimpiadaning faqat bitta fan doirasidagi sinovlarda ishtirok etadi.

4. Olimpiada quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

- birinchi bosqich – hududiy bosqich;
- ikkinchi bosqich – respublika bosqichi.

5. Olimpiadani yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek olimpiada g‘oliblarini rag‘batlantirish jarayoni respublika bosqichida Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan, hududiy bosqichda Hududiy tashkiliy qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi.

6. Respublika tashkiliy qo‘mitasi hamda Respublika hakamlar hay’ati tarkibi Toshkent davlat yuridik universiteti taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan har yili oktabr oyida tasdiqlanadi.

Hududiy tashkiliy qo‘mitalar hamda Hakamlar hay’ati tarkibi yuridik texnikumlar taqdimiga binoan hududiy adliya organlari rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Tashkiliy qo‘mitalar, qoidaga ko‘ra, rais, rais o‘rinbosari, kotibi va boshqa a‘zoldan iborat 5 kishilik tarkibda shakllantiriladi.

7. Tashkiliy qo‘mitalar olimpiadaning tashkiliy-texnik va axborot tizimlarini tashkil etish, olimpiada g‘oliblari va ishtirokchilarini rag‘batlantirish vazifalarini ta‘minlaydi.

8. Olimpiadaning har bir bosqichida g‘oliblarni aniqlash maqsadida 5 kishidan iborat respublika va hududiy hakamlar hay‘ati tuziladi.

9. Olimpiada quyidagi huquqiy fanlar doirasida o‘tkaziladi:

Konstitutsiyaviy huquq;

Davlat va huquq nazariyasi;

Jinoiy odil sudlov asoslari;

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar;

Jinoyat huquqi;

Fuqarolik huquqi;

Mehnat huquqi;

Jinoiy protsessual huquqi;

Fuqarolik protsessual huquqi;

Ma‘muriy huquq.

10. Olimpiada topshiriqlari Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan tayyorlanib maxfiyligi ta‘minlangan holda Hududiy tashkiliy qo‘mitalar va Respublika tashkiliy qo‘mitasiga yuboriladi. Tashkiliy qo‘mitalar savollarning oshkor bo‘lmasligi uchun javobgar hisoblanadi.

11. Olimpiadaning hududiy bosqichi natijalari Yuridik texnikumlarning, respublika bosqichi natijalari Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi.

## **II bob. Olimpiadaning hududiy bosqichini o‘tkazish tartibi**

12. Olimpiadaning hududiy bosqichi dekabr oyining birinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi. Hududiy bosqichni o‘tkazishning aniq sanasi va shakli Hududiy tashkiliy qo‘mitalar tomonidan belgilanadi.

13. Hududiy bosqichda ishtirokchilar soni chegaralanmaydi.

14. Hududiy bosqichini o‘tkazish mas‘uliyati hududiy tashkiliy qo‘mitalar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

15. Hududiy bosqichda o‘tkaziladigan olimpiada 2 ta shartdan iborat tartibda amalga oshiriladi.

1-shart – test savollari – (25 ta test savoli uchun 25 daqiqa mobaynida ishtirokchilar test uchun tayyorlangan maxsus xonalarda axborot-kommunikatsion

texnologiyalar orqali test savollariga javoblarni belgilaydi) har bir to'g'ri javob uchun 2 balldan jami 50 ball;

2-shart – nazariy savol-javoblar – (2 ta nazariy savol uchun 40 daqiqa) har bir to'g'ri javob uchun 25 balldan jami 50 ball;

16. Hududiy bosqich shartlari yakuniga ko'ra eng yuqori ball olgan o'quvchilarning 3 nafari g'olib deb (1, 2, 3-o'rinlar) aniqlanadi.

Olimpiadaning hududiy bosqichida 1-o'rinni egallagan ishtirokchilar Hududiy hakamlar hay'ati qaroriga muvofiq olimpiadaning respublika bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

17. Olimpiadaning hududiy bosqichi o'tkazilganligi to'g'risidagi yig'ilish bayonnomasi Hakamlar hayati a'zolari imzosi bilan tasdiqlanadi va 5 ish kuni mobaynida Hududiy tashkiliy qo'mita tomonidan olimpiadaning respublika tashkiliy qo'mitasiga taqdim qilinadi.

### **III bob. Huquqiy fanlar olimpiadasini respublika bosqichini o'tkazish tartibi**

18. Olimpiadaning respublika bosqichi yanvar oyida o'tkaziladi. Olimpiadaning respublika bosqichini o'tkazishning aniq sanasi va joyi Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan belgilanadi hamda olimpiada ishtirokchilariga ma'lum qilinadi.

19. Olimpiadaning respublika bosqichi quyidagi huquqiy fanlar doirasida o'tkaziladi:

- Konstitutsiyaviy huquq;
- Davlat va huquq nazariyasi;
- Jinoiy odil sudlov asoslari;
- Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar;
- Jinoyat huquqi;
- Fuqarolik huquqi;
- Mehnat huquqi;
- Jinoiy protsessual huquqi;
- Fuqarolik protsessual huquqi;
- Ma'muriy huquq.

20. Respublika bosqichida o'tkaziladigan olimpiada 3 ta shartdan iborat tartibda amalga oshiriladi.

1-shart – test savollari – (30 ta test savoli uchun 30 daqiqa mobaynida ishtirokchilar test uchun tayyorlangan maxsus xonalarda axborot-kommunikatsion

texnologiyalar orqali test savollariga javoblarni belgilaydi) har bir to‘g‘ri javob uchun 2 balldan jami 60 ball;

2-shart – sohaga doir muammoli masala (kazus) – (1 ta kazus uchun 60 daqiqa mobaynida yozma tarzda javob beriladi) to‘g‘ri javob uchun maksimal 20 ball;

3-shart – og‘zaki savol-javoblar – (4 savol uchun 2 daqiqadan) har bir to‘g‘ri javob uchun 5 balldan jami 20 ball;

21. Shartlar yakuniga ko‘ra eng yuqori ball olgan o‘quvchilarning 3 nafari g‘olib deb (1, 2, 3-o‘rinlar) aniqlanadi va eng yuqori ballni to‘plagan o‘quvchi respublika bosqichi g‘olibi deb topiladi.

#### **IV bob. Hakamlar hay‘ati**

22. Respublika hakamlar hay‘ati tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik universiteti, shuningdek adliya vazirligi tizimidagi boshqa ta‘lim tashkilotlari va muassasalarning vakillari kiritilishi mumkin.

Hududiy hakamlar hay‘ati tarkibiga hududiy adliya organlari, yuridik texnikumlar rahbariyati, pedagog xodimlar vakillari kiritilishi mumkin.

23. Hakamlar hay‘ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o‘quvchilarni fan olimpiadasi talablari bilan tanishtiradi;
- shifrlangan savollar konvertlarini o‘quvchilar guvohligida ochadi;
- kompyuter qurilmalari orqali bajarilgan test topshiriqlari natijalarini qayd etib umulashtiradi;
- o‘rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilmagan o‘quvchilarni dalolatnoma tuzib, olimpiadadan chetlashtiradi;
- o‘quvchilardan kazus ishlarni shifrlab tekshirish uchun qabul qilib oladi, tekshiradi va natijalarini qayd etib, umumlashtiradi;
- g‘oliblarni aniqlashda o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini sinab ko‘rish bilan bir qatorda, yozma javoblarni to‘liq va aniq bayon etishi hamda ilmiy xulosalar chiqarishi e‘tiborga olinadi;
- hakamlar hay‘ati fan olimpiadalari ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni tasdiqlangan baholash mezonlari asosida tekshiradi va baholaydi;
- fan olimpiadalari yakunlari bo‘yicha ma‘lumot tayyorlaydi va rasmiylashtiradi;
- fan olimpiadalari natijalarini olimpiada ishtirokchilari ishtirokida e‘lon qiladi;
- o‘tkazilgan olimpiada natijalari haqida tashkiliy qo‘mitaga batafsil hisobot beradi va zarur hujjatlarni taqdim etadi.

24. Hakamlar hay'ati a'zolari uzluksiz ravishda ikki yildan ortiq olimpiada hakamlari tarkibiga kiritilmaydi.

### **V bob. Huquqiy fanlar olimpiadasi Apellatsiya komissiyasi**

25. Apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish maqsadida Tashkiliy qo'mita raisi tomonidan 3 kishidan iborat Apellatsiya komissiyasi tuziladi.

Tashkiliy qo'mitaning raisi bevosita Apellatsiya komissiyasi raisi hisoblanadi.

Tashkiliy qo'mitaning kotibi bevosita Apellatsiya komissiyasi kotibi hisoblanadi.

Apellatsiya komissiyasining 1 nafar a'zosi tegishli fan mutaxassligi bo'yicha hududiy bosqichda yuridik texnikumlar, respublika bosqichida Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilar orasidan shakllantiriladi.

26. Apellatsiya komissiyasi tomonidan olimpiada qatnashchilarining shikoyatlari va arizalari olimpiada natijalari e'lon qilingandan boshlab 3 kungacha qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.

27. Fan olimpiadalari ishtirokchilarining arizalari Apellatsiya komissiyasi a'zolari va shikoyat bilan murojaat qilgan olimpiada ishtirokchisi ishtirokida Apellatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

28. Apellatsiyaga fan olimpiadalari ishtirokchilarining faqatgina o'zlari tomonidan bajarilgan ishlari bo'yicha arizalari ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi.

29. Fan olimpiadalari jarayonida apellatsiyada o'rnatilgan tartib-qoidalariga va muomala madaniyatiga rioya qilmagan o'quvchilar murojaatlari Hakamlar hay'ati tomonidan ko'rmasdan qoldiriladi. Bu haqda tuzilgan dalolatnoma Hakamlar hay'ati tomonidan imzolanadi.

Apellatsiya komissiyasi ishtirokchining olimpiadada to'plagan ballarini kamaytirishga haqli emas.

30. Apellatsiya komissiyasi zarurat bo'lganda, Hakamlar hay'ati qarorini bekor qilish va ularga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

### **VI bob. Huquqiy fanlar olimpiadasi g'oliblari hamda ularning o'qituvchilarini taqdirlash va rag'batlantirish**

31. Olimpiada g'oliblari va ularning o'qituvchilari quyidagi tartibda rag'batlantiriladi:

- Olimpiadaning hududiy bosqichi g'oliblari texnikum ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

- Olimpiadaning respublika bosqichi gʻoliblari hamda ularning oʻqituvchilari bazaviy hisoblash miqdorida quyidagi tartibda bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlanadi:

1-oʻrin uchun — 10, oʻqituvchisiga — 5 baravari;

2-oʻrin uchun — 8, oʻqituvchisiga — 4 baravari;

3-oʻrin uchun — 6, oʻqituvchisiga — 3 baravari.

32. Olimpiadaning respublika bosqichida ishtirok etgan ishtirokchilar Tashkiliy qoʻmita qarori bilan maxsus nominatsiyalar va Adliya vazirligining tegishli diplomlari bilan taqdirlanishi mumkin.

## **VII bob. Yakuniy qoidalar**

33. Hududiy bosqichda olimpiadalarni tashkil qilish hamda olimpiadaning respublika bosqichi uchun ishtirokchilarni saralash va tayyorlash xarajatlari, ishtirokchilarni respublika olimpiadalardagi ishtirokini taʼminlash bilan bogʻliq, shu jumladan sutkalik, yashash va transport xarajatlari budjetdan tashqari adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari, yuridik texnikumlarning toʻlov-kontrakt mablagʻlari va boshqa budjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy davlatlarning grantlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa texnik koʻmaklashish mablagʻlari jalb etilishi mumkin.

34. Olimpiadalar oʻtkaziladigan joyga ishtirokchilarni olib kelish va olib ketish, ularning yashash va yoʻllarda harakatlanish xavfsizligini taʼminlash boʻyicha barcha tashkiliy chora-tadbirlar masʼuliyati hududiy adliya organlari va yuridik texnikum rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

35. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor boʻlgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar boʻladi.



**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari  
o‘quvchilari o‘rtasida “Jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlari  
bo‘yicha namunaviy sud protsessi” tanlovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida  
NIZOM**

**I bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari o‘quvchilari o‘rtasida tashkil etiladigan “Jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlari bo‘yicha namunaviy sud protsessi” tanlovini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur tanlovning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

o‘quvchilarning nazariy bilimlarini yuridik amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmasini shakllantirish;

professional ta’lim muassasalarida huquqshunoslik yo‘nalishida tahsil olayotgan o‘quvchilarning sudda nutq so‘zlash qobiliyatini rivojlantirish;

o‘quvchilarda jamoada ishlash qobiliyatini, tezkor fikrlash, tahlil qilish hamda optimal qarorlarni qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish;

o‘quvchilarda kasb etika va umumiy kasbiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish.

3. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

4. Tanlov quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

- birinchi bosqich – hududiy bosqich;
- ikkinchi bosqich – mintaqaviy bosqich;
- uchinchi bosqich– respublika bosqichi.

Tanlovni yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek tanlovda g‘oliblarini rag‘batlantirish jarayoni respublika bosqichida Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan, mintaqaviy bosqichda Mintaqaviy tashkiliy qo‘mita tomonidan, Hududiy bosqichda hududiy tashkiliy qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi.

5. Respublika tashkiliy qo‘mitasi hamda Respublika hakamlar hayati tarkibi Toshkent davlat yuridik universiteti taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan har yili 20-noyabr sanasiga qadar tasdiqlanadi.

Mintaqaviy tashkiliy qo‘mita hamda Mintaqaviy hakamlar hayati tarkibi tegishli mintaqada joylashgan adliya organlarining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan har yili 20-oktabr sanasiga qadar tasdiqlanadi.

Hududiy tashkiliy qo‘mitalar hamda Hakamlar hayati tarkibi yuridik texnikumlar taqdimiga binoan hududiy adliya organlari rahbarlari tomonidan 25-sentabr sanasiga qadar tasdiqlanadi.

Tashkiliy qo‘mitalar, qoidaga ko‘ra, rais, rais o‘rinbosari, kotibi va boshqa a‘zolaridan iborat 5 kishilik tarkibda shakllantiriladi.

6. Tashkiliy qo‘mitalar tanlovning tashkiliy-texnik va axborot tizimlarini tashkil etish, tanlovda ishtirok etuvchi jamoalardan kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish, jamoalarning sud protsessida ishtirok etishdagi hujjatlarini ko‘rib chiqish hamda Hakamlar hayatiga tavsiya etish, tanlov g‘oliblari va ishtirokchilarini rag‘batlantirish vazifalarini amalga oshiradi.

## **II bob. Tanlovda ishtirok etish uchun jamoalar tarkibini shakllantirish va ularni ro‘yxatdan o‘tkazish**

7. Tanlovda yuridik texnikumlarda o‘qiyotgan o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan jamoalar ishtirok etish huquqiga ega. Har bir jamoa 5 tadan ishtirokchini o‘z ichiga oladi.

8. Tanlovda qatnashish uchun jamoalar Yuridik texnikum direktori tomonidan tasdiqlangan arizalarni Hududiy tashkiliy qo‘mitaga yuborishi lozim. Tanlovda qatnashish to‘g‘risidagi arizaning Hududiy tashkiliy qo‘mitaga yuborilishi, jamoaning tanlovda ishtirok etish uchun rozilik berganligini hamda ushbu tanlovning barcha shartlarini to‘liq qabul qilganligini anglatadi.

9. Yuridik texnikum direktori tomonidan tasdiqlanmagan arizalar Hududiy tashkiliy qo‘mita tomonidan qabul qilinmaydi.

10. Tanlovda har bir jamoa o‘z sardorini aniqlaydi va uning tayinlanganligi to‘g‘risida Hududiy tashkiliy qo‘mitani yozma ravishda xabardor qiladi. Jamoa sardori tanlov doirasida istalgan masalada va tanov tugaguniga qadar Tashkiliy qo‘mita bilan muloqotda bo‘lib turish majburiyatini oladi.

11. Jamoa tarkibiga kirmaydigan ishtirokchining borligi aniqlansa Tashkiliy qo‘mita tomonidan jamoa tanlovdan chetlashtiriladi.

12. Tanlovda qatnashuvchi jamoalar ro‘yxatdan o‘tish bo‘yicha arizani barcha ishtirokchilarning ma‘lumotlarini kiritib, imzolangan va skaner qilingan (pdf) holda Hududiy tashkiliy qo‘mitaga taqdim etadi.

Jamoa ishtirokchilari to‘g‘risida ma‘lumotlar to‘ldirilmagan yoki o‘z vaqtida jo‘natilmagan arizalar ko‘rib chiqilmaydi.

13. Jamoalarni ro‘yxatga olish jarayonida ularning har biriga raqam biriktiriladi. Har bir jamoa o‘ziga biriktirilgan raqamga ko‘ra identifikatsiya qilinadi. Ushbu raqam butun tanlov davomida jamoaga biriktirib beriladi. Tanlovning barcha protsessual hujjatlarida jamoaning identifikatsion raqami ko‘rsatilgan bo‘lishi shart.

### **III bob. Namunaviy sud protsessi yo‘nalishlarining o‘ziga xos jihatlari**

#### **1 §. Jinoyat ishlari bo‘yicha na‘munaviy sud protsessi**

14. Jinoyat ishlari bo‘yicha namunaviy sud protsessida jamoalar ayblov va himoya taraflar maqomida ishtirok etadi.

15. Har bir bosqichda jamoalarga yangi keyslar taqdim qilinadi hamda jamoalardan keyslar asosida tanlov bosqichiga tayyorlanish va materiallarni ikki jildda tayyorlash talab etiladi.

Bunda, bir jild ayblov tarafi pozitsiyasida harakatlanish va namunaviy sud protsessida ishtirok etish uchun bo‘lsa, ikkinchi jild himoya tarafi manfaatida harakatlanib namunaviy sud protsessida ishtirok etish uchun lozim bo‘ladi.

16. Har bir ishtirokchi jamoa tanlov boshlanishidan ikki kun oldin chop etilgan ko‘rinishda ikki jildda hujjatlarni Tashkiliy qo‘mitaga taqdim etadi. Hujjatlar bir jildda mavzu ko‘rsatilgan holda “Jamoa identifikatsiya raqami – ayblov nutqi”, ikkinchi jildda “Jamoa identifikatsiya raqami – himoya nutqi” holatida jo‘natiladi. Buning uchun har bir jamoaga ish fabulasi bo‘yicha ikki jildda hujjatlarni to‘plash va ham ayblov tarafi ham himoya tarafida ishtirok etish uchun tayyorlanish talab etiladi.

17. Tanlov shartlarida og‘zaki chiqishlar orqali ayblov taraf o‘z pozitsiyasini tushuntirish uchun 20 daqiqagacha vaqt beriladi. Ayblov tarafning so‘zidan so‘ng himoya tarafga o‘z pozitsiyasini tushuntirish uchun 20 daqiqagacha vaqt beriladi

(sudlanuvchiga va uning himoyachisiga ayblovga qarshi e'tiroz bildirishi va himoya pozitsiyasini ko'rsatishi nazarda tutilgan).

Ayblov va himoya taraflarga oxirgi dalillarini keltirish uchun 5 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir jamoa so'zga chiqish vaqtida o'z ishtirokchilarining o'rnini mustaqil belgilashiga ruxsat beriladi, lekin jamoa barcha ishtirokchilarining so'zga chiqishi qo'shimcha ijobiy dalil sifatida qabul qilinishi mumkin.

## **2 §. Fuqarolik ishlari bo'yicha namunaviy sud protsessi**

18. Fuqarolik ishlari bo'yicha namunaviy sud protsessida jamoalar da'vogar va javobgar taraflar maqomida ishtirok etadi.

19. Har bir bosqichda jamoalarga yangi keyslar taqdim qilinadi hamda jamoalardan keyslar asosida tanlov bosqichiga tayyorlanish va materiallarni ikki jildda tayyorlash talab etiladi.

Bunda, bir jild da'vogar pozitsiyasida harakatlanish va namunaviy sud protsessida ishtirok etish uchun bo'lsa, ikkinchi jild javobgar manfaatida harakatlanib namunaviy sud protsessida ishtirok etish uchun lozim bo'ladi.

20. Har bir ishtirokchi jamoa tanlov boshlanishidan ikki kun oldin chop etilgan ko'rinishda ikki jildda hujjatlarni Tashkiliy qo'mitaga taqdim etadi. Hujjatlar bir jildda mavzu ko'rsatilgan holda "Jamoat identifikatsiya raqami – da'vo arizasi", ikkinchi jildda "Jamoat identifikatsiya raqami – qarshi da'vo arizasi" holatida jo'natiladi. Buning uchun har bir jamoaga ish fabulasi bo'yicha ikki jildda hujjatlarni to'plash va ham da'vogar ham javobgar tarafida ishtirok etish uchun tayyorlanish talab etiladi.

21. Tanlov shartlarida og'zaki chiqishlar orqali da'vogarga o'z pozitsiyasini tushuntirish uchun 20 daqiqagacha vaqt beriladi. Da'vogarning so'zidan so'ng javobgarga o'z pozitsiyasini tushuntirish uchun 20 daqiqagacha vaqt beriladi (javobgarga da'vo arizasiga qarshi e'tiroz bildirishi nazarda tutilgan).

Da'vogar va javobgarga oxirgi dalillarini keltirish uchun 5 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir jamoa so'zga chiqish vaqtida o'z ishtirokchilarining o'rnini mustaqil belgilashiga ruxsat beriladi, lekin jamoa barcha ishtirokchilarining so'zga chiqishi qo'shimcha ijobiy dalil sifatida qabul qilinishi mumkin.

22. Iqtisodiy ishlari bo'yicha namunaviy sud protsessining o'ziga xos jihatlari ushbu nizomning 18-21-bandlarida ko'rsatilgan talablarni o'z ichiga oladi.

### **3 §. Ma'muriy sud ishlari bo'yicha namunaviy sud protsessi**

23. Ma'muriy sud ishlari bo'yicha namunaviy sud protsessida jamoalar arizachi va javobgar taraflar maqomida ishtirok etadi.

24. Har bir bosqichda jamoalarga yangi keyslar taqdim qilinadi hamda jamoalardan keyslar asosida tanlov bosqichiga tayyorlanish va materiallarni ikki jildda tayyorlash talab etiladi.

Bunda, bir jild arizachi pozitsiyasida harakatlanish va namunaviy sud protsessida ishtirok etish uchun bo'lsa, ikkinchi jild javobgar manfaatida harakatlanib namunaviy sud protsessida ishtirok etish uchun lozim bo'ladi.

25. Har bir ishtirokchi jamoa tanlov boshlanishidan ikki kun oldin chop etilgan ko'rinishda ikki jildda hujjatlarni Tashkiliy qo'mitaga taqdim etadi. Hujjatlar bir jildda mavzu ko'rsatilgan holda "Jamoa identifikatsiya raqami – ariza", ikkinchi jildda "Jamoa identifikatsiya raqami – ariza yuzasidan yozma fikr" holatida jo'natiladi. Buning uchun har bir jamoaga ish fabulasi bo'yicha ikki jildda hujjatlarni to'plash va ham arizachi ham javobgar tarafida ishtirok etish uchun tayyorlanish talab etiladi.

26. Tanlov shartlarida og'zaki chiqishlar orqali arizachiga o'z pozitsiyasini tushuntirish uchun 20 daqiqagacha vaqt beriladi. Arizachining so'zidan so'ng javobgarga o'z pozitsiyasini tushuntirish uchun 20 daqiqagacha vaqt beriladi (javobgarga ariza yuzasidan yozma fikr bildirishi nazarda tutilgan).

Arizachi va javobgarga oxirgi dalillarini keltirish uchun 5 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir jamoa so'zga chiqish vaqtida o'z ishtirokchilarining o'rmini mustaqil belgilashiga ruxsat beriladi, lekin jamoa barcha ishtirokchilarining so'zga chiqishi qo'shimcha ijobiy dalil sifatida qabul qilinishi mumkin.

### **IV bob. Hakamlar hayati tarkibi**

27. Hakamlar hayati hududiy bosqichda hududiy adliya organi rahbari buyrug'i bilan tasdiqlanadigan (sudyalar, adliya organlari xodimlari kelishuvga ko'ra hakamlar hayatiga kiritiladi) yuridik texnikumning pedagog o'qituvchilardan iborat 5 nafar tarkibda tuziladi.

Mintaqaviy bosqichda Hakamlar hayati Adliya vazirining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan (sudyalar, adliya organlari xodimlari kelishuvga ko'ra hakamlar hayatiga kiritiladi) pedagog o'qituvchilardan iborat 5 nafar tarkibda tuziladi.

Respublika bosqichida Hakamlar hayati adliya vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan (sudyalar, adliya organlari xodimlari kelishuvga ko‘ra hakamlar hayatiga kiritiladi) Toshkent davlat yuridik universiteti pedagog o‘qituvchilardan iborat 5 nafar tarkibda tuziladi.

28. Hakamlar hayati tarkibiga, qoida tariqasida, uchta a‘zo kiritiladi, ulardan biri hayatga raislik qiladi. Hakamlar hayati vakolatiga tanlovni ochiq deb e‘lon qilish, tomonlarga so‘z berish va uni tugatish, shuningdek tanlov bo‘yicha qarorlar qabul qilish kiradi.

### **V bob. Tanlov o‘tkazishning muddatlari, bosqichlari va tartibi**

29. Tanlov har yili bir marta tashkillashtirilib, hududiy bosqichda oktabr oyining uchinchi o‘n kunligida, mintaqaviy bosqichda noyabr oyining ikkinchi o‘n kunligida, respublika bosqichi dekabr oyining ikkinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi.

Jamoalarning har bir bosqich bo‘yicha protsessual hujjatlarni shakllantirishlari uchun keyslar ularga:

hududiy bosqichda 30-sentabrga qadar;

mintaqaviy bosqichda 25-oktabrga qadar;

respublika bosqichida 25-noyabrga qadar tashkiliy qo‘mitalar tomonidan taqdim etiladi.

Tanlovning keyslari xolislikni ta‘minlash maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan ishlab chiqiladi.

30. Tanlovning birinchi (hududiy) bosqichida yuridik texnikumlarda qoida tariqasida, 4 ta jamoa ishtirok etadi. Hududiy bosqichda jamoalar 4 tadan oshib ketse, tanlov yarim final va final shartlarida o‘tkaziladi.

Tanlovda Tashkiliy qo‘mita tomonidan ishlari tavsiya etilgan jamoalar ishtirok etib qura tashlash orqali guruhlariga taqsimlanadi. Qura tashlash jamoalar sardorlari tomonidan yopiq va muhrlangan konvertlarni ochish orqali amalga oshiriladi. Qura tashlashda jamoalarning qaysi taraflar manfaatida harakatlanishi aniqlab olinadi.

Jamoalar taqdim etgan ish hujjatlari va og‘zaki chiqishlari orqali baholanadi.

Hududiy bosqichda g‘olib bo‘lgan ikki jamoa mintaqaviy bosqichda ishtirok etish yo‘llanmasini qo‘lga kiritadi.

31. Mintaqaviy bosqichda jamoalar quyidagi hududlar doirasida tanlovda ishtirok etishadi:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlari – birinchi mintaqa;

b) Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy va Samarqand viloyatlari – ikkinchi mintaqa;

c) Toshkent shahar, Sirdaryo, Toshkent va Jizzax viloyatlari – uchinchi mintaqa;

d) Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari – to‘rtinchi mintaqa.

Mintaqaviy bosqichdagi tanlovga yo‘llanma olgan hududiy bosqich jamoalari qura tashlash orqali guruhlariga taqsimlanadi va qaysi taraflar manfaatida harakatlanishi aniqlab olinadi. Mintaqaviy bosqichda jamoalar 6 tadan 8 tagacha bo‘lishi inobatga olinib, ushbu bosqich yarim final va final shartlarida o‘tkaziladi.

Yarim final shartida har bir guruhga 2 tadan jamoa birlashtirilib, taraflar sifatida bir-biriga qarshi kurashadi hamda g‘olib jamoalar aniqlanib keyingi shartda ishtirok etish huquqi taqdim etiladi. Natijada 4 hududli mintaqalar (**b** va **c** mintaqalar)da 4 ta jamoa; 3 hududli mintaqalar (**a** va **d** mintaqalar)da 3 ta jamoa final shartida ishtirok etadi.

4 hududli mintaqalar (**b** va **c** mintaqalar)da jamoalar qura tashlash orqali guruhlariga birlashtirilib kurash olib boradi va g‘olib ikkita jamoa respublika bosqichi yo‘llanmasini qo‘lga kiritadi.

3 hududli mintaqalar (**a** va **d** mintaqalar)da jamoalar qura tashlash orqali respublika bosqichiga avtomatik tarzda yo‘llanma oladigan jamoani va guruhga birlashtirilib kurash olib boradigan jamoalarni aniqlaydi. Mintaqaviy bosqichning final shartida g‘olib bo‘lgan jamoa ham respublika bosqichida ishtirok etish yo‘llanmasini qo‘lga kiritadi.

Jamoalar taqdim etgan ish hujjatlari va og‘zaki chiqishlari orqali baholanadi.

32. Respublika bosqichida mintaqaviy bosqichda g‘olib bo‘lgan 8 ta jamoalar (har bir mintaqadan ikkita jamoa) o‘rtasida chorak final, yarim final va final shartlarida tanlov o‘tkaziladi.

Chorak final shartida qura tashlash orqali jamoalar guruhlariga ajratiladi. Jamoalar taqdim etgan ish hujjatlari va og‘zaki chiqishlari orqali baholanadi, g‘olib jamoalar aniqlanadi hamda yarim final shartiga o‘tkaziladi.

Yarim final shartida qura tashlash orqali jamoalar guruhlariga ajratiladi. Jamoalar taqdim etgan ish hujjatlari va og‘zaki chiqishlari orqali baholanadi, g‘olib jamoalar aniqlanadi hamda final shartiga o‘tkaziladi. Yarim final bosqichida mag‘lub bo‘lgan jamoalar 3-o‘rin uchun shu tartibda bellashadi.

Final shartida qura tashlash orqali jamoalarning qaysi taraf manfaatida xarakat qilishini aniqlab oladi. Jamoalar taqdim etgan ish hujjatlari va ogʻzaki chiqishlari orqali baholanadi, gʻolib jamoa aniqlanib respublika bosqichining mutlaq gʻolibi deb eʼlon qilinadi.

33. Ishning fabulasiga tanlovda ishtirok etayotgan jamoalar tomonidan tanlovning har qanday bosqichida va shartlarida oʻzgartirishlar kiritish taʼqiqlanadi. Har qanday noaniqliklar yuzasidan ishtirokchi jamoalar Tashkiliy qoʻmitaga yozma murojaat qilish orqali aniqlik kiritishlari mumkin.

34. Ish yuzasidan tayyorlanadigan hujjatlar faqatgina hozirda amalda boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek ish fabulasida koʻrsatilgan holatlarda (qonunning orqaga qaytish kuchini inobatga olib) asoslangan holda yoziladi.

35. Protsessual hujjatlar A4 shaklda tomonlari teng 2 sm oʻlchamda, matn kenglik asosida tekslangan, hujjatlar shrifti **Times New Roman** 14, havolalar uchun 10, qatorlar oʻrtasidagi interval 1.2 boʻlgan holda rasmiylashtirilishi lozim.

Protsessual hujjatlar har birining hajmi 15-20 varaqdan oshmasligi tavsiya etiladi.

36. Protsessual hujjatlarning majburiy elementlari quyidagilar:

titul varagʻi;

hujjatlar roʻyxati;

daʼvo arizasi (qarshi daʼvo arisasi, daʼvo arizasiga eʼtiroz);

ayblov nutqi (himoya nutqi);

ariza (ariza yuzasidan yozma fikr);

ilova hujjatlar.

37. Tanlovning har bir bosqich natijalari bilan birga keyingi bosqich oʻtkazilishi joyi va vaqti haqida eʼlon qilinadi.

Tanlov shartlaridan oʻtmagan jamoalar sud jarayonida tinglovchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

Tashkiliy qoʻmitalarga hujjatlar taqdim etilguniga qadar jamoalar hamma hujjatlarni toʻldirishlari mumkin.

38. Bir guruhga birlashgan raqib jamoalarga shartlar boshlanishidan oldin bir-birining ish hujjatlari bilan tanishib chiqishi va oʻz pozitsiyasini belgilab olishi uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

39. Sud jarayonida oʻrnatilgan muddat ichida jamoalarning biri ishtirok etmasa, tanlov tashkilotchisi 10 daqiqalik kutishdan soʻng sud jarayonini bir tomonlama oʻtkazish toʻgʻrisida qaror qabul qilishi mumkin. Bir tomonlama sud



jarayonini o'tkazish davomida ishtirok etayotgan tomonning ishtiroki qarama-qarshi taraf oldida ishtirok etganidek baholanishi lozim. Bu holatda sud jarayoniga kelmagan taraf sud jarayonida ishtiroki davomida olishi mumkin bo'lgan barcha ballardan mahrum etiladi.

40. Hakamlar hayati qaror qabul qilishda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, ushbu Nizom talablari, vijdoniylik, adolat va qonuniylik tamoyillari hamda shaxsiy tajriba va fikriga asoslanishi lozim.

41. Tanlov bosqichlarining shartlari umumiy 100 ballni tashkil etadi.

Tanlov shartlari quyidagi tartibda baholanadi:

- jami 40 ball – yozma hujjatlar taqdimoti, protsessual hujjatlar, pozitsiyaning o'ziga xosligi, jamoalarga ajratilgan vaqtni to'g'ri taqsimlash (ajratilgan vaqt to'g'ri taqsimlanmagan taqdirda 1 balldan 5 ballgacha jarima belgilanadi);

- jami 50 ball – ishtirokchilarning sud jarayoni tartibiga rioya qilishlari, bu borada tegishli bilimga ega ekanliklarini isbotlashi, qarshi tarafning kamchiliklaridan ustalik bilan foydalana olishi va ish hujjatlari yuzasidan qarshi tarafga aniqlashtiruvchi savollar berishi baholanadi (sud jarayoni tartibiga rioya qilinmagan taqdirda 1 balldan 5 ballgacha jarima tayinlanadi);

- jami 10 ball – jamoalarning sud majlisidagi faol ishtiroki, kreativligi, tashabbuskorligi va ifodali nutqi uchun qo'shimcha sifatida berilishi mumkin.

42. Baholash Hakamlar hayati tomonidan sud protsessini olib borishning tamoyillari va tartiblaridan, ishtirokchilarning notiqlik san'atidan, fikrning mantiqiy ketma-ketligidan, og'zaki va yozma nutqning asoslanganlik darajasidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

43. Raqib jamoaga qaraganda nisbatan ko'p ball to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi. Agar ballar soni teng bo'lib qolsa, unda Hakamlar hayati tomonidan qaror qaysi jamoa foydasiga chiqarilgan bo'lsa, o'sha jamoa g'olib hisoblanadi.

44. Hakamlar hayati qarori yakuniy hisoblanadi va unga nisbatan shikoyat bilan murojaat qilinmaydi.

## **VI bob. Tanlov g'oliblarini rahbatlantirish**

45. Tanlovning har bir yoʻnalishi boʻyicha gʻoliblikni qoʻlga kiritgan jamoalar respublika bosqichida quyidagi tartibda ragʻbatlantiriladi:

1-oʻrin – 10 000 000 (oʻn million) soʻm;

2-oʻrin – 8 000 000 (sakkiz million) soʻm;

3-oʻrin – 6 000 000 (olti million) soʻm.

Tanlovning barcha bosqichlarida gʻolib jamoa diplom hamda esdalik sovgʻalari bilan taqdirlanadi.

46. Tanlovda faol hamda munosib ishtirok etgan oʻquvchilar tanlovning barcha bosqichlarida quyidagi nominatsiyalar boʻyicha ragʻbatlantiriladi:

“Eng yaxshi advokat”;

“Eng faol sud protsessi ishtirokchisi”;

“Sud protsessining eng yaxshi notigʻi”.

47. Tanlov gʻoliblari hamkor tashkilotlar tomonidan ham esdalik sovgʻalari bilan taqdirlanishi mumkin.

## **VII bob. Tanlovning yakuniy qoidalari**

48. Hududiy, mintaqaviy tanlovlarni tashkil qilish hamda respublika tanlovlar uchun ishtirokchi jamoalarni saralash va tayyorlash, jamoalarning mintaqaviy va respublika tanlovlardagi ishtirokini taʼminlash bilan bogʻliq, shu jumladan sutkalik, yashash va transport xarajatlari budjetdan tashqari adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari, yuridik texnikumlarning toʻlov-kontrakt mablagʻlari va boshqa budjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy davlatlarning grantlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa texnik koʻmaklashish mablagʻlari jalb etilishi mumkin.

49. Tanlovning mintaqaviy va respublika bosqichi nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida oʻtkazilib, Adliya vazirligi veb-sayti orqali yoritib boriladi.

50. Tanlovlar oʻtkaziladigan joyga ishtirokchi jamoalarni olib kelish va olib ketish, ularning yashash va yoʻllarda harakatlanish xavfsizligini taʼminlash boʻyicha barcha tashkiliy chora-tadbirlar masʼuliyati Adliya vazirligi, hududiy adliya boshqarmalari hamda yuridik texnikumlar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

51. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor boʻlgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar boʻladi.